


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



2023 yil "29" od

YORDAMCHI TARIX FANLARI  
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lism
Ta'lism sohasi:	110000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi:	60111100 -Tarix

Chirchiq – 2023

Fan/modul kodi YTF107	O'quv yili 2023-2024	Semestr II	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)
	Yordamchi tarix fanlari	60	60
2. I. Fanning mazmuni			
<p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarda Yordamchi tarix fanlari tadqiqot metodlari va ularni tarix fanini rivojlanтирishga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, xususan, xronologiya, numizmatika, paleografiya, tarixiy metrologiya kabi sohalarni va shu fanlar orqali tarix fanini yanada chuqur o'rganish orqali tarix fanlarini samarali o'qitishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> - talabalarga Yordamchi tarix fanlari nazariyasi, Yordamchi tarix fanlari turlari va tuzilishi hamda tarix darslarida ulardan foydalanishga o'rgatishdan iborat.</p>			
<p><b>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p>			
<p><b>1-mavzu. Kirish. Yordamchi tarix fanlarining maqsad va vazifalari</b></p> <p>Yordamchi tarix fanlaring predmeti, tadqiqot metodlari. Tarixni o'rganishda maxsus tarixiy fanlar (yordamchi tarix fanlari)ni o'mni va ahamiyati. Xronologiya, numizmatika, paleografiya, tarixiy metrologiya va boshqalar. Yordamchi tarix fanlaring o'zaro bog'liqligi.</p>			
<p><b>2-mavzu. Xronologyaning fan sifatida shakllanishi va taraqqiyoti.</b></p> <p><b>Vaqtning dastlabki o'chov birliklari</b></p> <p>Xronologyaning fan sifatida vujudga kelishi. Xronologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqalari. Tarixiy va astronomik xronologiya. Xronologik tadqiqotlarning uslublari. Qadimgi Sharq mamlakatlari, Yunoniston va Rimda xronologiyaaning taraqqiyoti. Yevropada xronologiya fanining vujudga kelishi va taraqqiyoti. O'rta Osiyo olimlarining xronologiya rivojlanishiga qo'shgan hissasi.</p>			
<p><b>3-mavzu. G'arb mamlakatlari xronologiyasi. Qadimgi Rim, Gretsiya kalendarlari. Yuliy Sezarning kalendar islohoti</b></p>			

Qadimgi yunon kalendarlari. Qadimgi Rimda kalendarlar. Julian kalendari. Yuliy Sezarning kalendar islohoti. Rim kalendar oy nomlaring o'zgartirilishi. Rim kalendarida yetti kunlik haftanig qo'llanilishi. Julian kalendarining keng tarqilishi. Milodiy yil hisobi. Grigorian kalendar. Rim papasi Grigoriy XIII ning kalendar islohoti. Grigorian kalendarining qulaylik tomoni va XVI-XX asrlarda umumyevropa kalendar sifatida dunyo mamlakatlariga keng tarqalishi.

#### **4-mavzu. Numizmatika fani shakllanishi va taraqqiyoti. Qadimgi Yunoniston va Rim tangalari**

Numizmatika fani, uning maqsadi va vazifalari. Numizmatikaning boshqa yordamchi tarixiy fanlar bilan aloqasi. Numizmatikaning paydo bo'lishi. Tovar ayriboshlashning vuhudga kelishi. Dasrlabki tangalar. Qadimgi Yunoniston va Rim tangalari. Yunon tangalaridagi raqamlarning ramzlari. Qadimgi Rim tangalari. Rim tangalaridagi tasvirlar va afsonalar. Ellinizm davrida tanga ishlab chiqarish texnikasidagi o'zgarishlar. Yunon tangalarida ishlatiladigan alifbo.

#### **5-mavzu. Qadimgi davr O'zbekiston tangalari**

O'zbekiston tovar-pul munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi. Yunon Baqrtya shoxlari tangalari. Mahalliy So'g'diyona tangalarining qaror topishi. Qadimgi Xorazm tangalari.

#### **6-mavzu. O'rta asr O'zbekiston tangalari**

Kushonlar tangalari. Sosoniylar tangalari. Turk hoqonligi tangalari. Islom aqidalarining tangalarning ikonografik ko'rinishiga tubdan ta'sir ko'rsatishi. Somoniylar, Qoraxoniylar tangalari. Saljuqiylar tomonidan zarb qilingan tangalar. Xorazmda Muhammad ibn Takash tomonidan zerb qilingan tangalar. Mo'g'ullar tomonidan zerb qilingan tangalar.

Amir Temur va temuriylar tangalari. Shayboniylar davridagi tangalar. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklaridagi zerb qilingan tangalar. Mang'it sulolasiga mansub amirlar tomonidan zerb qilingan tangalar. Rus tangalarining O'rta Osiyoga kirib kelishi.

#### **7-mavzu. Paleografiyaning maqsad va vazifalari. Yozuvlarning paydo bo'lishi**

Paleografiyaa fanining obyekti, Paleografiyaa fanining vazifalari va fanning ish uslubi. O'zbekiston tarixi va madaniyatini o'rganishda Paleografiya fanining o'rni va ahamiyati. Yozuvlarning paydo bo'lishi. Insoniyat tarixidagi

qadimgi yozuvsalar va ularning turlari. Piktografik, logografik, bo‘g‘inli, harfiy yozuvsalar. Yozuv quroli va materiallari. Ilk yozuvlarning materiali, quroli. Qadimgi va o‘rta asrlarda yozuvlarni bitishda qo‘llaniladigan eng an‘anaviy qurollar: qamish, qalam, patlar. Xuroson va Mavarounnahr qo‘lyozmalarining bezaklari, yozuv qurollari, yozuv materiali. Metall perolarning kashf etilishi.

#### **8-mavzu. O‘rta Osiyodagi qadimgi yozuvsalar**

O‘rta Osiyodagi qadimiy yozuvsalar haqida umumiylar ma’lumot. Paxlaviy, So‘g‘d, Baqtriya, Parfiya, qadimgi Xorazm, Avesto, O‘rxun-Enisey, uyg‘ur yozuvlari. Qadimiy yozuvlarni o‘rganishda epigrafik yodgorliklarning ahamiyati.

#### **9-mavzu. Arab yozuvining shakllanishi. Sharq qo‘lyozmalarining paleografik xususiyatlari**

Arab yozuvining paydo bo‘lishi. Arab yozuvida o‘tkazilgan islohotlar. Arab yozuvi turlarining shakllanishi: kufiy, muhaqqaq, rayhoniy, suls, tavqi’, riqo, nasx, ta’liq, shikastayi ta’liq. Sharq qo‘lyozmalarining paleografik xususiyatlari. Arab olamidagi birinchi qo‘lyozma kitob. Qur’onning birinchi va ikkinchi tahriri. Markaziy Osiyoda arab grafikasining tarqalishi. Xuroson va Mavarounnahr qo‘lyozmalari. Xattotlik san’ati.

#### **10-mavzu. O‘zbek yozuvidagi o‘tkazilgan islohotlar**

Arab yozuvidagi islohotlar. Lotin yozuviga o‘tilishi. Lotin yozuvidagi islohotlar. Rus yozuviga o‘tilishi. Rus yozuvida o‘tkazilgan islohotlar. Mustaqillik yillarda amalga oshirilgan islohotlar.

#### **11-mavzu. Tarixiy metrologiya vazifalari va rivojlanishi**

Tarixiy metrologiya predmeti va rivojlanishi. Eng qadimgi o‘lchov birliklari. Metrologiya – o‘lchovlar, ularning bir xilligini ta’minlash usullari va vositalari. Talab etilsdigan aniqlikka erishish yo’llari.

#### **12-mavzu. Sharq va G‘arb davlatlarida qo‘llanilgan o‘lchov birliklari**

Qadimgi Sharq davlatlarida qo‘llanilgan o‘lchov birliklari. O‘rta asrlardagi tarixiy metrologiya. O‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda ishlatilgan o‘lchov birliklari. Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarida ishlatilgan pul birliklari.

G‘arb davlatlari uzunlik va o‘g‘irlik o‘lchov birliklari tarixi. Angliya metr sistemasi, uzunlik, hajm, o‘lchov birliklari. Zamonaviy metrologiyaning vazifalari.

### **13-mavzu. Sfragrastika va geraldikaning shakllanishi va taraqqiyoti**

Sfragistika tarixiy mavzu sifatida, uning predmeti va usuli. XIV-XX asrlardagi Orta Osiyo davlatlarining muhrlari. Geraldika fani haqida. Gerbli va ramzli yozma manbalar. Geraldika tarixiy mavzu sifatida, uning predmeti va usuli.

### **14-mavzu. Lingvistika fani shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari**

Qadimgi tillar va elatlar. Tillarning kelib chiqishi va taraqqiyoti. Hozirda qo'llanilmaydigan tillar.

### **15-mavzu: Toponomika fanining shakllanishi va taraqqiyoti**

Geografik nomlar, inson tomonidan yaratilgan eng qadimgi yodgorliklar va ularning nomlanishi, toponomik substratlari. Tarixiy toponomika va ularning guruhlanishi. Oykonimlar, gidronimlar, oronimlar, dromonimlar, urbanonimlar. Mintaqaviy toponimlar. Toponomikaning tarix fanidagi ahamiyati.

### **III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar talabalarning ma'ruza darslarida o'tilgan bilimlarni mustahkamlash va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish va ularga asoslanilgan holda chuqur va atroficha bilim olishlariga yordam beradi va turli manbalardan yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilishga va mavzular yuzasidan ilmiy va tarixiy jihatdan asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lishga imkon beradi. Olingan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llay olish kompetentsiyalarini takomillashtiradi

**Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Yordamchi tarix fanlarining maqsad va vazifalari
2. Xronologiyaning fan sifatida shakllanishi va taraqqiyoti. Vaqtning dastlabki o'lchov birliklari
3. G'arb mamlakatlari xronologiyasi adimgi Rim, Gretsiya kalendarlari. Yuliy Sezarning kalender islohoti
4. Numizmatika fani shakllanishi va taraqqiyoti
5. Numizmatika. Qadimgi Yunoniston va Rim tangalari
6. O'zbekiston hududidagi ilk tangalar
7. O'zbekiston hududidagi o'rta asrlarga oid tangalar
8. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari tangalari
9. Paleografiya. Yozuvlarning paydo bo'lishi

10. O'rta Osiyo yozuvlari tarixi
11. Arab yozuvining shakllanishi. Xattotlik
12. O'zbek yozuvidagi o'tkazilgan islohotlar
13. Sfagrastika va geraldika fanlari shakllanishi va taraqqiyoti
14. Lingvistika fani shakllanishi va tarqqiyot bosqichlari
15. Toponomika fanining shakllanishi va taraqqiyoti

#### **IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta'lifni baholash** – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq oolib beriladi.

#### **Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Xronologiyaning fan sifatida shakllanishi va taraqqiyoti. Vaqtning dastlabki o'Ichov birliklari mavzusida kichik tadqiot ishi olib borish.
2. Kalendar va ularning turlari bo'yicha tasviriy va izohli elektron kontent tayyorlash.
3. Sharq mamlakatlari kalendarlari tahlilini olib borish.
4. Qadimgi Rim va Yunoniston kalendarlari bo'yicha jamoaviy loyiha ishi tayyorlash.
5. Yuliy Sezarning kalendar islohoti va unga amal qilinishi bo'yicha individual loyiha ishi tayyorlash.
6. O'rta Osiyoda qo'llanilgan kalendarlar bo'yicha tahliliy tadqiqot olib borish.
7. Grigoriy kalendarini va zamonaviy kalendarlarning tavsifi va ularni o'rganishi bo'yicha ilmiy tezis tayyorlash.
8. Qadimgi Yunoniston va Rim tangalarining umumiy ma'lumoti va amal qilinishi bo'yicha elektron dars tayyorlash.
9. Sfagrastika va geraldika fanlari shakllanishi va taraqqiyoti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish.
10. Lingvistika fani shakllanishi va tarqqiyot bosqichlari bo'yicha tasviriy va izohli elektron kontent tayyorlash.
11. Yordamchi tarix fani sohalari bo'yicha jamoaviy loyiha ishi tayyorlash.

12. Paleografiya va yozuvlarning paydo bo‘lishi bo‘yicha individual loyiha ishi tayyorlash.
13. O‘rta Osiyo yozuvlari tarixi boyicha elektron dars tayyorlash.
14. Arab yozuvining shakllanishining tadriji va tahlilini olib borish.
15. Xattotlik sanati, uning namoyondalari bo‘yicha bibliografik lug‘at yaratish.
16. O‘rta Osiyo olimlarining xronologiya rivojlanishiga qo‘sghan hissasi bo‘yicha ilmiy tezis tayyorlash.
17. Yevropada xronologiya fanining vujudga kelishi va evolyutsion taraqqiyotini tahlil qilish.
18. Qadimgi Yunoniston kalendarlari tavsifani tayyorlash.
19. Qadimgi Rim, Julian va Grigorian kalendarlarini taqqoslash va tahliliy ma'lumot tayyorlash.
20. Umar Xayyom kalendarining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha kichik tadqiqot ishi olib borish.
21. Musulmon kalendarining vujudga kelishi va taraqqiyoti bo‘yicha tasvirli ishlanma tayyorlash.
22. Qadimgi davr O‘rta Osiyo va Yunon-Baqtriya tangalarini taqqoslash, o‘ziga xos tavsifini tayyorlash.
23. Farg‘ona tudunlari, Turk – So‘g‘d tangalari, Choch tangalari bo‘yicha jamoaviy loyiha ishi tayyorlash.
24. O‘rta Osipyoda yaratilgan turkiy qo‘lyozmalar ro‘yhati va ularning tavsifini tuzish.
25. Sharqda va G‘arbda qo‘llanilgan o‘lchov birliklarini taqqoslash va tahlilini tayyorlash.

3.

#### **V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

##### **Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:**

- yordachi tarix fanlari strukturas;
- yordamchi tarix fanlarining predmeti, maqsad va vazifalari;
- yordamchi tarix fanlarining rivojlanish bosqichlari;
- yordamchi tarix fanlarining tarix fanlari taraqqiyotidagi o‘rnii haqida bilimga ega bo‘lishi (**bilim**);
- yordamchi tarix fanlarining tadqiqot usullari;
- yordamchi tarix fanlari asosida tarixiy jarayonni tahlil qilish;
- yordamchi tarix fanlari materiallarini izohlay bilishi va ularidan foydalana olishi (**ko‘nikma**);
- yordamchi tarix fanlariga oid ma'lumotlar asosida tarix darslarini tashkil qilish;
- yordamchi tarix fanlari materiallaridan tarix ta’limida foydalanish

	malakasiga ega bo‘lishi kerak.
4.	<p><b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• amaliy ishlar (sayohat darslari, konferentsiyalar, debatlar, treninglar);</li> <li>• individual loyihiilar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihiilar;</li> <li>• raqamli kontentlar tayyorlash (tasvirlar, jadval, diagrammalar, animatsiyalar, elektron darslar);</li> <li>• kichik tadqiqot ishi va b.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, mustaqil ta’lim ishlarini tayyorlash va himoya qilish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p><b>VIII. Asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bozorov O., Ahmedov R. va boshqalar, Yordamchi tarixiy fanlar. Farg’ona nashriyoti. –T.: 2015. 270 б.</li> <li>2. Is’haqov M., Xudaynazarov I. Yordamchi tarixiy fanlar / O’quv qollanma. -Toshkent: 2019..</li> <li>3. Ismatullayev P.R., Qodirova Sh.A. Metrologiya asoslari. O’quv qo’llanma. Toshkent. 2017 y.</li> <li>4. Иофе В.Г., Чориев З.У. Хронология ва метрология. – Т., 2003.</li> <li>5. Sodiqov Q. Matnshunoslik va Manbashunoslik asoslari. O’quv qo’llanma. Toshkent. 2017 y.</li> <li>6. Mansurov O’. Yordamchi tarix fanlari. Uslubiy qo’llanma. Toshkent 2008 y.</li> <li>7. Мелсин М. Геральдика, нумизматика, сфрагистика. Вспомогательные историйческие дисциплины. Н.: 2006.</li> <li>8. Rahmonqulova Z. Xronologiya. -T.: A.Navoiy nomidagi davlat nashriyoti, 2006.</li> <li>9. Rahmatullayeva O., Salomov J. Xronologiya. Metodik qo’llanma. 2012.</li> <li>10. Rahmatullayeva O., Salomov J. Numizmatika. Metodik qo’llanma.</li> </ol>

2012.

11. Вспомогательные исторические дисциплины. Курс лекции. Сост. А.А.Бродников. - Новосибирск, 2012.

#### IX. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, - 488 b. 2017
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 48 b.
3. Айпиатов Г.Н., Иванов А.Г. Русская палеография. М., 2003.
4. Boboyorov G'. G'arbiy turk xoqonligi ilk tangalari. Moziydan sado. 1 (33) 2007. -B. 24-25.
5. Bo'riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. - Т.: O'zbekiston, 1997.
6. Беляков А.С. Нумизматика. Введение в специальные исторические дисциплины. –Новосибирск, 2012.
7. Давидович Е.А. Корпус золотых и серебряных монет Шейбанидов. XVI век. – М., 1992.
8. Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии. –Т., ТвГУ, 2011.
9. Eshov B. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. –Т., 2006.
10. .
11. Rustamov M.T. Yordamchi tarix fanlari. Metrologiya(Maxsus kurs). - Т., 1998.
12. To'xtiyev I. Temur va temuriylar sulolasining tangalari. – Т.: Fan, 1992.
13. To'xtiyev I. Amir Temur va temuriylarning moliya-pul siyosati. NMIU, O'zbekiston, 2006.
14. Hakimov M. Turkiston xalqlari qo'llagan taqvimlar. –Т., 1999.

#### Axborot manbalari

1. [www.cspl.uz](http://www.cspl.uz)
2. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

7. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi qarori bilan tasdiqlangan.

8. Fan/modul uchun ma'sul:

	<p><b>S.A.Toshtemirova</b> - CHDPU, "Jahon tarixi" kafedrasi dotsentii, p.f.f.d. (PhD)</p> <p><b>I.S.Joldasov</b> - CHDPU, "Jahon tarixi" kafedrasi katta o'qituvchisi</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>O.N. Nosirov</b> - Toshkent shahar Perfekt universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi</p> <p><b>J.N. Abdurahmonova</b> - Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" yo`nalishi rahbari, tarix fanlari nomzodi.</p>